

**Yondosh mavzu:**  
qishloq xo'jaligi.

Ar, gektar.



1. Rasmdan qaysi maydon eng katta yuzga ega ekanligini aniqlang. Nima uchun?



2. Bo'yi 2 450 m, eni esa bo'yidan 7 marta qisqa bo'lgan maydonning yuzini toping. Yuzning qiymatida nechta to'liq yuzlik bor?



**Katta maydonlar arlar va gektarlarda o'lchanadi.**

**1 ar 100 kvadrat metrni o'z ichiga oladi.**

**1 a = 100 m<sup>2</sup>**

**1 gektar 10 000 kvadrat metrni o'z ichiga oladi.**

**1 ha = 100 a = 10 000 m<sup>2</sup>**



3. Ifodalang:

a) kvadrat metrlarda: 7 gektar, 12 ar, 3 gektar 5 ar;

b) arlarda: 5 gektar, 4 500 m<sup>2</sup>, 30 000 m<sup>2</sup>.



4. Taqqoslang.

230 m<sup>2</sup> ☐ 2 a

62 a ☐ 620 m<sup>2</sup>

18 ha ☐ 1 800 m<sup>2</sup>

70 000 m<sup>2</sup> ☐ 8 ha

310 a ☐ 3 ha

42 a ☐ 4 ha

## 76. Yuz birliklari






5. Dehqon o'z dalalariga bug'doy, makkajo'xori, loviya ekdi. Ekin ekilgan maydonlarning yuzlari jadvalda ko'rsatilgan. Fermerga tegishli yerning umumiy yuzi qancha?

|                                                                                   |                                                                                   |                                                                                     |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
|  |  |  |
| 7 ha 19 a                                                                         | 3 ha 5 a ko'p                                                                     | 4 marta kam                                                                         |



6. To'g'ri burchakli ko'pburchaklarni tanlang.



7. Sonlarni yozing:

- 5ta millionlik 287ta minglik 456ta birlik;
- 12ta millionlik 400ta minglik 830ta birlik;
- 604ta millionlik 5ta minglik 32ta birlik;
- 56ta millionlik 5ta birlik.



8. Hosilni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing. Har bir maydondan jami necha to'liq tonna hosil yig'ib olindi? Necha to'liq sentner hosil yig'ib olindi?



Suli – 176 034 kg



Javdar – 252 451 kg



Qora bug'doy – 123 250 kg



9. Hosildorlik – bu bir birlik maydondan olinadigan hosilning hajmi. Masalan, kartoshka hosildorligi 270 q/ha bo'lsa, bu gektaridan 270 sentnerdan hosil olinganligini anglatadi. Bo'yi 2 km, eni 500 m bo'lgan maydondan necha tonna kartoshka olinadi?



10. Murakkab masala. Har bir band uchun ifodalar yozing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Birinchi maydondan  $t$  sentner, ikkinchi maydondan esa  $b$  sentner kam don yig'ib olindi. Ikkinchi maydondan qancha don yig'ib olingan?

b) Hamma don elevatorda saqlandi. Elevatorda necha sentner don bor?

d) Bu kilogrammlarda qanchani tashkil etadi?

e) Elevatordagi barcha don 50 kilogrammlik qoplarga solindi.

Donlar nechta qopga joylangan?



**Don saqlanadigan elevator**



11. Bir uyum pichanni ot bir oyda, echki ikki oyda, qo'y uch oyda, quyon olti oyda yeydi. Barcha hayvonlar bu pichanni birgalikda qancha vaqtda yeydi?



12. Eng kichik o'lchov birligiga o'tkazib hisoblang.

$$45 \text{ ha } 12 \text{ a} + 81 \text{ ha } 38 \text{ a} - 16 \text{ ha } 87 \text{ a}$$

$$95 \text{ a} : 10 + 235 \text{ m}^2 \cdot 7$$

$$12 \text{ ha} - 17 \text{ m}^2 \cdot 5 \cdot 8$$



13. Maydonning yuzi 87 ha. Birinchi kun 23 ha 16 a maydon, ikkinchi kun birinchi kundagidan 1 ha 45 a ko'proq maydon shudgor qilindi. Uchinchi kunga qancha gektar maydonni shudgorlash qoldi?